

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



2021 йил 6-сон



Бош муҳаррир: Наманган давлат университети ректори С.Т.Тургунов

Масъул муҳаррир: Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор М.Р.Қодирхонов

Масъул муҳаррир ўринбосари: Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиғи Р.Жалалов

ТАҲРИРҲАЙЪАТИ

Физика-математика фанлари: акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аъзамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тўхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов, ф-м.ф.д., доц. Р.Хақимов, ф-м.ф.д. М.Рахматуллаев.

Кимё фанлари: акад. С.Рашидова, акад. А.Тўраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф. Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

Биология фанлари: акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц. А.Баташов, б.ф.н.

Техника фанлари: - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.

Қишлоқ хўжалиғи фанлари: – г.ф.д., доц. Б.Камалов, к-х.ф.н., доц. А.Қазақов.

Тарих фанлари: – акад. А.Асқаров, с.ф.д., проф. Т.Файзуллаев, тар.ф.д, проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.

Иқтисодиёт фанлари: – и.ф.д., проф. Н.Махмудов, и.ф.д., проф. О.Одилов.

Фалсафа фанлари: – акад., Ж.Бозорбоев, ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.

Филология фанлари: – акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф. С.Аширбоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуқов, фил.ф.д., проф. Ҳ.Усманова, фил.ф.д., проф. Б.Тухлиев, фил.ф.н, доц. М.Сулаймонов.

География фанлари: - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д., проф. А.Нигматов.

Педагогика фанлари: - п.ф.д., проф. У.Иноятлов, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф. Ш.Хонкелдиев, PhD П.Лутфуллаев.

Тиббиёт фанлари: – б.ф.д. Ғ.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.

Психология фанлари – п.ф.д., проф. З.Нишанова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

Техник муҳаррирлар: **Н.Юсупов, Г.Акмалжонова**

Таҳририят манзили: Наманган шаҳри, Уйчи кўчаси, 316-уй.

Тел: (0369)227-01-44, 227-06-12 **Факс:** (0369)227-07-61 **e-mail:** iltiy@inbox.uz

Ушбу журнал 2019 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсати қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бўйича Олий аттестация комиссиясининг диссертациялар асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

“НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ” журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномаси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август куни 1106-сонли гувоҳнома га биноан чоп этилади. “НамДУ Илмий Ахборотномаси” электрон нашр сифатида ҳалқаро стандарт туркум рақами (ISSN-2181-1458)га эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 10.05.2021 йилдаги кенгайтирилган йиғилишида муҳокама қилиниб, илмий тўплам сифатида чоп этишга рухсат этилган (Баённома № 6). Мақолаларнинг илмий савияси ва келтирилган маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021



SINXRON TARJIMA SAN'ATINI EGALLASH STRATEGIYALARI

Gulnora Gaybullloyevna Abdullayeva,

Buxoro davlat universiteti

Ingliz tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0000-0003-1828-7487

Tel: +998902999151 E-mail: gulnoragaybulloyevna@gmail.com

***Annotatsiya.** Sinxron tarjima qilish faqat nazariy bilimlar evaziga o'rganiladigan yoki egallanadigan ko'nikma emas, mohir tarjimon bo'lish jarayonni amaliyotda ham sinab ko'rish, amaliy muammolarni bartaraf yetish uchun xos strategiyalar va usullardan foydalanishni taqozo etadi. Mazkur maqolada tadqiqotchi sinxron tarjimada yosh tarjimonlar tayyorlashning eng muhim strategiyalar tahlilini izohlab bergan.*

***Kalit so'zlar:** sinxron tarjima, strategiya, nutq tezligi, kompressiya, matn, xotira, so'zlovchi nutqi, aslyat tili, tarjima tili, ma'no segmenti*

СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ СИНХРОННОГО ПЕРЕВОДА

Гулнора Гайбуллоевна Абдуллаева

Преподаватель кафедры английского языкознания

Бухарского государственного университета

ORCID: 0000-0003-1828-7487

Tel: +998902999151 E-mail: gulnoragaybulloyevna@gmail.com

***Аннотация.** Синхронный перевод - это не только навык, который можно выучить или освоить в обмен на теоретические знания, но и для того, чтобы стать квалифицированным переводчиком, необходимо экспериментировать на практике, использовать определенные стратегии и методы для решения практических задач. В этой статье исследователь объясняет анализ важнейших стратегий обучения молодых переводчиков синхронному переводу.*

***Ключевые слова:** синхронный перевод, стратегия, скорость речи, сжатие, текст, память, разговорный язык, исходный язык, язык перевода, семантический сегмент.*

STRATEGIES FOR MASTERING SIMULTANEOUS TRANSLATION SKILLS

Gulnora Gaybullloyevna Abdullayeva,

Teacher of English linguistics department of

Bukhara state university

ORCID: 0000-0003-1828-7487

Tel: +998902999151 E-mail: gulnoragaybulloyevna@gmail.com

***Abstract.** Simultaneous translation is not only a skill that can be learned or mastered in exchange for theoretical knowledge, but in order to become a qualified translator, you need to experiment in practice, use certain strategies and methods to solve practical problems. In this article, the researcher explains the analysis of the most important strategies for teaching young translators to interpret.*

***Keywords:** simultaneous translation, strategy, speech speed, compression, text, memory, spoken language, source language, target language, semantic segment*



Kirish. Shu paytgacha G'arb olimlari o'z ona tillari va boshqa bir xorijiy tillarning sinxron tarjima usullari va metodlari ustida ish olib borishgan. Ular qo'llagan metod va usullarning hammasidan ham inglizcha-o'zbekcha yoki o'zbekcha-inglizcha sinxron tarjimada foydalanib bo'lmaydi. Chunki o'zbek tili Yevropa tillaridan farqli o'laroq boshqa tillar oilasiga mansubdir hamda uning sintaktik va morfologik qurilishi tubdan farq qiladi. Shu boisdan, o'zbek tilidan ingliz tiliga va ingliz tilidan o'zbek tiliga sinxron tarjima qilish metodlari va nazariyalari ustida yetarli darajada ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmaganligini hisob olib, shu masala yuzasidan chuqur tadqiqot ishlarini olib borishni o'zimizga maqsad qilib oldik. Nafaqat sinxron tarjima jarayoni, balki tarjimonlarni tayyorlash ham juda murakkab amaliy jarayondir. Ushbu amaliyotdan muvaffaqiyatli o'tishlari uchun tarjimonlar turli usul va yo'llardan, aniqrog'i, strategiyalardan foydalanadilar. Sinxron tarjimani mukammal egallash strategiyalari muammo kelib chiqqanda ongli ravishda ma'lum usullarini amaliyotga tadbiiq etish yo'llari hisoblanadi.

Ishning mazmuni. Ko'pgina adabiyotlarda sinxron tarjimada qo'llaniladigan strategiyalar 2 katta guruhga ajratiladi: a) sinxron tarjimada nutqni tushunishni kuchaytiruvchi strategiyalar; b) tarjima tilida fikrni ifodalashga yordam beruvchi strategiyalar. Bu strategiyalarning o'zi yana bir necha tiplarga bo'linadi:

A. Sinxron tarjimada nutqni tushunishni kuchaytiruvchi strategiyalar:

1. Jarayonga tayyorlanish;
2. Oldindan ma'noni o'ylab topish;
3. Bo'laklarga ajratish;

B. Tarjima tilida fikrni ifodalashga yordam beruvchi strategiyalar:

1. Asliyat tilidagi matnni muvofiqlashtiruvchi strategiyalar:
 - a) sintaktik transformatsiya; b) so'zma-so'z tarjima;
2. Tarjima tilidagi matnni muvofiqlashtiruvchi strategiyalar:
 - a) matnning qisqartirilishi yoki kengaytirilishi; b) stilistik strategiyalar; c) namoyish qilish;
3. Zaruriy strategiyalar:
 - a) tanlash; o'chirib tashlash; b) umumlashtirish; c) soddalashtirish;
4. Tuzatishlar kiritish strategiyalari:
 - a) o'z-o'zini to'g'rilash; b) hech narsani to'g'rimaslikka qaror qilish;
5. Umumiy strategiya:
 - a) kuzatish yoki nazorat qilish.

Tasniqlangan strategiyalarni birma-bir tahlil qilsak, qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Sinxron tarjimada nutqni tushunishni oshiruvchi strategiyalarga kiruvchi jarayonga tayyorlanish strategiyasi konferensiya ishtirokchilari orasidan ma'lumotlar yig'ish yoki tarjima qilinishi kutilayotgan matn mavzulari, terminologiyasi bilan tanishish kabilarni qamrab oladi. Oldindan ma'noni o'ylab topish strategiyasi tarjimonga matnni oldindan ko'z oldiga keltirish bilan, bo'laklarga ajratish deb nomlangani esa fikrlar tahlilini osonlashtirish maqsadida ularni ma'no bo'laklari (segmentlarga) ajratish bilan xarakterlanadi.

Ikkinchi turdagi strategiyaning o'zi 5 tipdan iborat. Birinchi tip (asliyat tilidagi matnni muvofiqlashtiruvchi strategiyalar) o'z ichiga sintaktik transformatsiya va so'zma-so'z kabilarni oladi. Sintaktik transformatsiya sinxron tarjima elementlarining gapda joylashuvini o'zgartirish usulidir. Shu usul orqali asliyat tilidagi matnning tabiiyroq chiqishiga erishiladi. So'zma-so'z tarjima esa uning aksi bo'lib, undan raqamlar, kishi ismlari ro'yxatini berishda foydalaniladi.



Tarjima tilidagi matnни muvofiqlashtirish strategiyalaridan biri bo'lgan matnни qisqartirish tarjimon tomonidan ortiqcha ma'lumotlarning olib tashlanishi demakdir. Matnning kengaytirilishi izohga ehtiyoj sezilganda tarjima tilida qo'shimcha ma'lumotlarning berilishidir. Stilistik strategiya fikrni ifodalashning eng yaxshi ekspressiv ifoda usullarini topish, namoyish qilish strategiyasi esa ushbu ifoda usullarini supersegmental unsurlar (intonatsiya, pauza va b.) orqali namoyon qilish demakdir.

Zaruriy strategiyalardan tarjimonlar vazifasi uddalay olmayotganlarini his qilganlarida foydalanishadi. Bu muammo sabalari turlicha bo'lishi mumkin: ma'lumotlarning haddan tashqari ko'p oqib kelishi, charchash, shovqinlarning xalaqit berishi va ko'plab boshqa sabablar. Shunga o'xshash vaziyatlarda qaysi ma'lumotni aytish yoki qoldirib ketish tanlab olinadi. Vaqt ziqligi bosimi ostida tarjimon keragidan ortiqcha ma'lumotlarni xotirasidan butunlay o'chirib tashlaydi, asliyat tilidagi ma'lumotlarni umumlashtiradi yoki tarjimasi qiyin bo'lgan matnlarni soddalashtiradi.

Tuzatishlar kiritish strategiyasi ostiga birlashgan o'z-o'zini to'g'rilash strategiyasi – tarjimon tomonidan nutqda qo'llash vaqtida ehtiyotsizlik qilib aytib yuborilgan atamalarning tuzatilishi. Ba'zan tarjimonlar tinglovchilarga noqulaylik tug'dirmaslik uchun yohud yo'l qo'yilgan xatoning ma'noga ta'siri yo'qligini sezsalor, ularni tuzatmaslikka qaror qilishadi.

Oxirgi strategiya turi bo'lmish umumiy strategiya o'z ichiga kuzatish (nazorat qilish) strategiyasini qamrab oladi. Bunda tarjimon faoliyat unumdorligini nazorat qilish maqsadida allaqachon tarjima qilingan fikrlar bilan kelayotgan xabar orasidagi ma'no aloqadorligini tekshirib ko'radi.


Kalining sinxron tarjima strategiyalarining klassifikatsiyasiga kiritilmagan "Vaqtни orqaga surish" strategiyasi Gayl⁶ va Donatolar ilmiy ijodida ta'riflangan.⁷ Ushbu strategiya tarjimonlarning biror jumlanı tarjima qilolmay qolganlarida vaqtning orqaga surishi, to'xtab turishi bilan xarakterlanadi.

Ingliz-o'zbek tillarida olib borilgan sinxron tarjima jarayonlarida yuqorida nomi zikr etilgan strategiyalardan qaysi birlari ko'proq ishlatilishini bilib olish maqsadida bir ilmiy-amaliy anjumanda qo'llanilgan sinxron tarjima jarayonini o'rganib chiqdik. Biz tadqiqotimiz uchun o'rganish obyektı sifatida tanlagan 20 minutlik sinxron tarjima jarayonida 2 nafar tarjimon ishtirok etdi. Ingliz tilida kelayotgan xabarning o'rtacha tezligi 110-120 s/d (1 daqiqada 110-20ta so'z)ni, biroq tarjima tilida xabarning yetkazilish o'rtacha tezligi 80 s/d ni tashkil qildi. Bunday keskin farq ikkala til tizimining turlicha ekanligi tufayli kelib chiqdi: o'zbek tilida ingliz tilidan farqli ravishda fe'llarning gap so'ngida kelishi, ravishlarning fe'llardan oldin ishlatilishi, ingliz tilida artikllarning mavjudligi, grammatik ma'noning predloglar, yordamchi so'zlar orqali ifodalanishi.

O'n besh daqiqalik tarjima jarayonida yuqorida ta'riflab o'tilgan strategiyalarning ishlatilish darajasini o'rganib, ularning lisoniy tomonlarini (lingvistik aspektlarini) tadqiq etamiz. Ikki tildagi sintaktik jihatdan farq qiluvchi gaplarda qo'llanilgan strategiyalar til masalalariga oid strategiyalar hisoblanadi, qolganlari esa umumiy xarakterdagi strategiyalardir.

⁶ Gile, D. Basic Concepts and Models for Interpreter and Translator Training. Amsterdam and Philadelphia: John Benjamins: 1995-p30

⁷ Donato, V. "Strategies Adopted by Student Interpreters in SI: A Comparison between the English-Italian and the German-Italian Language-Pairs". The Interpreters'Newsletter, 2003, №12: p101-134.



Tadqiq qilinayotgan tarjima jarayonida eng ko'p qo'llanilgan strategiya "Vaqtni orqaga surish" va "Sintaktik transformatsiyalash" strategiyalaridir. Jarayonda ingliz tilidagi jumalarning qariyb 90 % i sintaktik jihatdan qayta qurildi. Tarjimonlar nutq davomini tinglash mobaynida fikr tugallashini kutib, tarjima qilishni orqaga surib turishlari sababli "Vaqtni orqaga surish" strategiyasini ko'p marotaba qo'llashdi. Masalan, "The company has been licensed to drill for oil in the area. Sometimes even using rock drills and compressing air to drive through hard rock are impossible" jumalarini tarjima qilishni boshlaganda, "Kompaniya hududdagi neftni qazib olish lisenziyasini olgan" deganda, sintaktik transformatsiyadan (teskari joylashtirish) foydalanilgan. Keyingi gap to'liq tugallanmasdan uning tarjimasini amalga oshirish imkoni yo'qligi uchun u "Vaqtni orqaga surish" strategiyasini ishlatgan. Chunki ushbu jumlada sintaktik birliklarning qisman parallel holati kuzatiladi. Ikkinchi jumla tarjimasida ("Ba'zan, hattoki, qoyatosh drelini qo'llash va qoyatoshlar orasidan havoni siqishning ham iloji yo'q") sintaktik nomuvofiqlik ingliz tilida sifat qatnashgan ot-kesimning o'zbek tilida unumli ishlatilmasligida hamda ingliz tilida tushum kelishigi grammatik ma'nosining gapda qat'iy so'z tartibi orqali berilishida kuzatiladi: "...compressing air to drive through hard rock..." – "...qoyatosh orasidan havoni siqish...".

Keyingi qo'llanilgan strategiya – "Matnni qisqartirish" strategiyasi. Ushbu usul aynan o'zbek va ingliz tillari xususiyatlaridan kelib chiqib tanlangan strategiya emas, balki qisqartirish sinxron tarjima jarayonining tabiatiga xos usuldur. Chunki sinxron tarjimada tarjimonlar, yozma tarjimadan farqli o'laroq, faqat asosiy ma'noni yetkazib berishga harakat qiladilar. Ular ma'noga aloqasi yo'q keraksiz ma'lumotlarni tarjima tilida shunchaki tushirib qoldiradilar. Shu asnoda ham vaqtdan yutiladi, ham tarjima matnidan chalkash ma'lumotlar o'rnida qisqa, biroq mazmunli fikrlar joy oladi. Sinxron tarjimada so'zlovchi nutqining tempidan kelib chiqib, tarjimon nutqining tempi va qisqartirishlar soni quyidagi jadvalda berilgan:⁸

| So'zlovchi nutq tezligi, bo'g'inlar soni/min | Tarjimon nutq tezligi, bo'g'inlar soni/min | Qisqartirish miqdori (yozma tarjima bilan taqqoslaganda), % |
|--|--|---|
|--|--|---|

⁸Ширяев А. Ф. Синхронный перевод: деятельность синхронного переводчика и методика преподавания синхронного перевода. **Москва, 1979. стр 87**



| | | |
|------------|-----|------|
| 166--180 | 206 | 7,4 |
| 181--195 | 211 | 10,4 |
| 196--210 | 215 | 16,5 |
| 211--225 | 217 | 28 2 |
| 226--240 | 222 | 30,3 |
| 256 и выше | 226 | |

Keyingi jadvalda esa kompressiyalarning misollar orqali berilishini ko'rishimiz mumkin:⁹

| | |
|--|---|
| <p>The question of Namibia which is now before the general Assembly for consideration is the question without doubt which reveals fully the deadly consequences of apartheid, racism and colonialism, these scourges of humanity, thus one can see from the impressive number of speakers on this question the particular importance that practically all members of our Organization attach to the present deliberations within the assembly.</p> | <p>Намибия муаммоси Бош Ассамблея олдида турган мухдм масаладир</p> <p>Аппартеиднинг ёмон асоратлари, иркчилик, колониализм - бу мухим масаладир.</p> |
|--|---|

Matnni kengaytirish holatlari so'zlovchi nutqini tugatib, tashkiliy qismlar bilan band bo'lganda (proyektordan slaydlarning kerakli joyi tanlanayotganda va boshqa turli vaziyatlarda) kuzatildi. Tarjimonlar oldin tarjima qilingan jummalarga qo'shimcha izohlar berib o'tishdi.

Ingliz va o'zbek tillari grammatikasi keskin farqlangani uchun "Ma'noli bo'laklarga ajratish" strategiyasidan ham unumli foydalanildi. Tarjimonlar original nutqdagi butunlay boshqacha sintaksis tarjimasi bilan shug'ullanayotganda, gapning o'zini bir nechta ma'no segmentlariga ajratib chiqib, so'ngra ularni tarjima tilida mos sintaktik qoliplarga joylab tarjimaning yanada tabiiyroq chiqishiga erishdilar. Quyidagi misollarni taqqoslaganda ikkinchi tarjima "Ma'noli bo'laklarga ajratish" strategiyasiga asoslangani uchun tinglovchiga tushunarli tilda ifodalangan:

"The project will cover the reconstructiojn of the villages with no piped water"

1-tarjima: "Loyiha qishloqlar qayta qurilishini qamrab oladi.. qishloqlarning quvurlarida suv yo'q..";

2-tarjima: "Loyiha suv quvurlari o'tmagan qishloqlarning qayta qurilishini qamrab oladi".

⁹ Muminov O. A guide to Simultaneous Translation. Tashkent, 2005. p37



Aslida tarjimon anjumanda berilgan ikkinchi tarjima variantini taqdim etdi, biz shu o'rinda segmentlarga ajratib tarjima qilish samarali ekanligini ko'rsatish, so'zma-so'z tarjima qilish nutq mazmun-mohiyatini buzilishiga olib kelishini yaqqol namoyon etish maqsadida birinchi tarjimoni o'zimiz misol tariqasida keltirib o'tdik. Demak, ikkinchi tarjima matnida tarjimonning yutug'i original nutqda ma'noli gap bo'laklarini ajratib olgani ("the project will cover", "piped water", "villages with no piped water", "reconstruction of the villages..") hamda ularni tafakkurida avvaldan mavjud bo'lgan, tayyor holatda saqlanayotgan tarjima tili qoliplariga mos ravishda joylashtirib chiqqanidadir.

Shuni ham aytib o'tish joizki, "O'z-o'zini to'g'rilash" strategiyasidan juda kam hollarda foydalanildi. Bunda tarjimonlarning faqat til uchidan bexosdan sirpanib chiqib ketgan xatolarni tuzatishlari kuzatildi. Tarjimonlardan biri "Matn davomini oldindan o'ylab topish" strategiyasini qo'llab matn davomini taxmin qilgandan so'ng qo'llagan taxmini va original matn orasida farq borligini sezib darhol nutqiga tuzatish kiritdi: "... in manufacturing industry there has been gradual..." jumlasida kelayotgan nutq matnining davomi "gradual decline" ("bosqichma-bosqich pasayish") tarjimon tomonidan "gradual change" ("bosqichma-bosqich o'zgarish") sifatida taxmin qilingandi, ammo tarjimon nutq davomini tinglab bo'lgach, tinglovchilardan yengilgina uzr so'rab jumlaning to'g'rilab takrorladi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ingliz-o'zbek tillarida olib borilgan sinxron tarjima jarayonida 7 xil strategiyalar turli darajada qo'llanilgani qayd etildi. Ushbu strategiyalardan faqatgina "Sintaktik transformatsiyalash", "Ma'noli bo'laklarga ajratish" va "Matn davomini oldindan o'ylab topish" kabilar ingliz va o'zbek tillarining lisoniy xususiyatlariga asoslanadi. Boshqalari esa sinxron tarjima amaliyotida kelib chiqadigan, og'zaki tarjima tabiatiga xos bo'lgan umumiy strategiyalardir.

Yuqoridagi fikrlar mukammal yoki to'kis natijalar yuzasidan shakllangan emas, chunki olib borgan tadqiqotimiz tor-doiradagi izlanishlar asnosida sinxron tarjimaning ma'lum bir muhitini qamrab olgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ширяев А. Ф. Синхронный перевод: деятельность синхронного переводчика и методика преподавания синхронного перевода. **Москва:1979. – 183**
2. Donato V. Strategies Adopted by Student Interpreters in SI: A Comparison between the English-Italian and the German-Italian Language-Pairs // The Interpreters'Newsletter. 2003, №12: p101-134.
3. Gile D. Basic concepts and models for interpreter and translator training. Amsterdam and Philadelphia: John Benjamins: 1995-278p
4. Kalina S. Discourse Processing and Interpreting Strategies — An Approach to the Teaching of Interpreting // In Teaching Translation and Interpreting: Training, Talent and Experience. Papers from the First Language International Conference, Elsinore, Denmark, 31 May - 2 June 1991. Ed. Cay Dollerup & Anne Loddegard. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins, 1992. pp. 251-257.
5. Muminov O. A guide to Simultaneous Translation. Tashkent, 2005. 42 b.



10.00.00

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHILOLOGICAL SCIENCES

| | | |
|----|--|-----|
| 48 | Ошибки в письменной работе студентов Хамдам-зода Л | 251 |
| 49 | Sinxron tarjima san'atini egallash strategiyalari Abdullayeva G. G | 257 |
| 50 | Индивидуальные вариации в овладении вторым языком Бобокулова Г.Ш | 263 |
| 51 | Эртак ва унинг тарихига бир назар Имяминова Ш.С..... | 267 |
| 52 | Comparative research of english and Uzbek toponyms Ismatova N.M | 270 |
| 53 | Ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida "Happiness" va "Baxt" kontseptining ifodalanishi Jumayeva O.I | 275 |
| 54 | Теория множественного интеллекта и изучение языка Каххорова Ш.Ш | 279 |
| 55 | Tetralogiyaning tadrijiy taraqqiyoti Qo'uliyeva G.N | 283 |
| 56 | Инновационные методы обучения английскому языку для специальных целей Мирходжаева М.И | 287 |
| 57 | Oliy o'quv yurtlarida rusiyzabon talabalarga o'zbek tilini o'qitish muammolari Normatova Sh.U | 291 |
| 58 | Abdulla Oripovning "Haj daftari" she'riy turkumi haqida Fayzullayeva O.X | 295 |
| 59 | Feminist yozuvchilar asarlarida badiiy tasvir vositalarini qo'llanilishi xususida Abdullayeva N | 299 |
| 60 | Yetuk o'zbek adibi Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asari misolida tarixiy inversiya Naimova A.M | 303 |
| 61 | Тилшуносликда матн талқини Қозоқова Н.А | 308 |
| 62 | Обучение Английскому языку с помощью литературы Курбонова Ш.Х | 312 |
| 63 | Frazeologiyani o'rganish va inson ruhiy holatini ifodalovchi frazeologik birliklarning chog'ishtirma tahlili Saidova Z.X | 316 |
| 64 | Ўзбек тилида тарз ифода воситаларининг морфологик, синтактик, лексик ва услубий ифодаланиши Абдуллаев А | 320 |